

Kitob - ma'naviyat oynasi

2021-yil 7-aprel kuni "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakultetining 4-kurs 403 - guruh talabalari, guruh murabbiyi "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining katta o'qituvchisi M.Raxmataliyev boshchiligidagi institutimizning Axborot-resurs markazining 2-qavatida joylashgan Professor-o'qituvchilar o'quv zalida "Kitob-inson ma'naviyati ko'zgusidir" rukni ostida o'tkaziladigan "Kitoblar ko'rgazmasi"ga tashrif buyurdilar.



Tashrifi davomida ko'rgazmada o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar, shu jumladan, o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlari bilan tanishib chiqdilar. Tashrif juda mazmunli bo'lib, talabalar o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishdilar. Tashrif so'ngida guruh murabbiyi va talabalar tashabbusi asosida guruh murabbiyi hamda har bir talaba o'zining shaxsiy kutubxonasidan institut kutubxonasiga kitoblar sovg'a qildilar. Ushbu tashabbus bilan chiqqan guruh murabbiyi va talabalar institutimizning barcha professor-o'qituvchilari hamda talabalaridan ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlagan holda, barchani unda ishtirok etishlariga da'vat etdilar.



TIQXMMImatbuot xizmati